



INFRATUZILMA LOYIHALARNI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJIRIBALARI

FOREIGN EXPERIENCE IN IMPLEMENTING INFRASTRUCTURE PROJECTS BASED ON PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP

¹*Shodiyev Akmal
O'ktamjon o'g'li*

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
ORCID: 0009-0006-6262-2894, G-mail: akmalshodiyev98@gmail.com*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqola infratuzilma loyihalarni davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning xorij tajribalari mavzusiga bag'ishlanadi. Maqola xorijiy davlatlarning davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modellari, ularning qonunchilik, iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, maqolada so'nggi yillarda infratuzilma loyihalarini DXSh modeli asosida amalga oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda DXSh mexanizmlarining rivojlanish tendensiyalari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Maqolaning asosiy maqsadi infratuzilma sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmini samarali amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida DXSh modelining infratuzilma rivojlanishiga ta'siri, uning afzallik va kamchiliklari, turli DXSh modellarning xususiyatlari hamda muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirishda muhim bo'lgan huquqiy baza, shaffoflik, xavflarni boshqarish va monitoring mexanizmlari yoritildi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston sharoitida DXShni rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Eng. - This article is devoted to the study of foreign experience in implementing infrastructure projects through public-private partnerships (PPPs). It examines PPP models applied in foreign countries, including their legal, economic, and governance mechanisms. In addition, the article provides a scientific and theoretical analysis of advanced international practices in implementing infrastructure projects through PPPs in recent years and conducts a comparative analysis of trends in the development of PPP mechanisms in Uzbekistan and other countries. The main objective of the article is to develop scientifically grounded recommendations for the effective implementation of PPP mechanisms in the infrastructure sector. Within the scope of the study, the impact of PPP models on infrastructure development, their advantages and disadvantages, various types of PPP models, and key success factors such as a clear legal framework, transparency and accountability, risk management, and project monitoring are analyzed. Based on international experience, strategic directions and practical recommendations for the development of PPPs in Uzbekistan are proposed.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ *investitsiya, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, yalpi ichki mahsulot, xususiy sektor, infratuzilma loyihalari.*
❖ *investment, public-private partnership, infrastructure, gross domestic product, private sector, infrastructure projects.*

Kirish.

DXSh tizimi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda global miqyosda keng qo'llanilayotgan samarali mexanizmlardan biri sifatida tanilgan. DXSh davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni uyg'unlashtiruvchi model bo'lib, bu ikki sektordan har birining ustuvor jihatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. DXSh mexanizmi orqali xususiy sektorning texnologik amaliy tajribasi, innovatsion yondashuvlari hamda moliyaviy resurslari davlat sektorining tartibga solish, rejalashtirish va strategik boshqaruv borasidagi institutsional tajribasi bilan integratsiyalashadi. Bu yondashuv, infratuzilma loyihalarining samaradorligini, sifatini va barqarorligini oshirishga yordam beradi.

DXSh modelining samarali amalga oshirilishi zarur institutsional sharoitlar va mexanizmlarning mavjudligi, shuningdek, davlat va xususiy sektor ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik aloqalariga bevosita bog'liqdir. Xorijiy tajribalar DXSh loyihalarini tashkil etish va boshqarishning samarali mexanizmlarini namoyon etib, ushbu model asosida amalga oshirilgan infratuzilma loyihalarida erishilgan natijalar hamda yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish orqali muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiyalar, davlat-xususiy sherikligi va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zarur sharti sifatida e'tirof etilgan [1].

DXSh mexanizmi ko'plab mamlakatlarda turli darajadagi muvaffaqiyat bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu konsepsiya rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda, shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasida

samarali hamkorlik an'analari shakllangan sharoitlarda keng qo'llanilmoqda. Biroq, umumiy yondashuvlarning o'xshashligiga qaramay, turli mamlakatlarda DXShni tashkil etish va amalga oshirish mexanizmlarida muayyan institutsional va amaliy tafovutlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

DXSh mexanizmini birinchi bo'lib keng miqyosda tadqiq qilgan xorijiy olim E.R. Yeskombning fikricha, DXSh – bu davlat sektori tomonidan infratuzilma obyektlarini sotib olishning (davlat xaridlari) muqobil shakli bo'lib, davlat qarz mablag'lari yoki soliq tushumlaridan moliyalashtiriladi [2]. Xorijlik olim ushbu ta'rifda DXSh asosan davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini nazarda tutgan.

Yana bir xorijlik olim, Buyuk Britaniyada DXSh markazi boshqaruvchisi M.B.Gerard: DXShni davlat va xususiy sektor xo'jaliklari doirasida milliyashtirilmagan hamda xususiylashtirilmagan ko'rinishda tashkil qilinishi va faoliyat yuritishi haqida aytib o'tadi. Siyosiy jihatdan DXSh aholiga jamoat xizmatlarini ko'rsatishning yangi uchinchi usulini namoyon qiladi deb ta'kidlaydi [3]. Bu yerda olim davlat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat xaridi va xususiylashtirishning uchinchi usuli sifatida DXShni ko'rsatadi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, mamlakatimizda ham investitsion jozibadorlikni oshirish hamda mamlakatdagi investitsion muhitni jahon tajribalari asosida rivojlantirish, xususan, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda DXShning roli E.Nosirov, S.Yunusova, A.Shomirov, O.Astanakulov, J.Razzaqovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda empirik va nazariy darajadagi usullardan, ya'ni induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, kuzatuv usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklar davlat budjeti mablag'larining samarali yo'naltirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, provardida loyihalarni moliyalashtirishda DXSh mexanizmlaridan foydalanish zaruriyatini yuzaga keltiradi. DXSh nafaqat davlat balki aholi turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy siyosat va xususiy sektorga foyda keltiruvchi mexanizm hisoblanadi. Bu hukumat nuqtai nazaridan tavakkalchilikni yumshatish va loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimolini oshirishga yordam beradi. DXShning yana bir afzalligi shundaki, u xususiy sektordan yangi texnologiyalar va ilg'or tajribalarni loyihaga jalb qilish imkonini beradi. Xususiy kompaniyalar DXSh shartnomalari asosida o'z tajribalarini loyiha doirasida qo'llaydi, bu esa samaradorlikni oshirish, loyihani samarali boshqarish hamda yuqori sifatli natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni yaqqol ko'rsatmoqdaki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlari milliy iqtisodiyotni barqaror va izchil rivojlantirish, yirik va kapital talab etuvchi infratuzilma loyihalarini samarali moliyalashtirish hamda amalga oshirish, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va kommunal xizmatlar kabi ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. DXSh modeli orqali davlat va xususiy sektor resurslari, boshqaruv tajribasi hamda innovatsion yondashuvlar uyg'unlashib, byudjet yukini kamaytirish, loyihalar samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan, rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarning DXSh sohasidagi ilg'or tajribalarini chuqur o'rganish, ularning institutsional, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarini tahlil qilish hamda mazkur

amaliyotlarni mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, milliy manfaatlari va ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini inobatga olgan holda tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Chet davlatlarda DXSh mexanizmi uzoq vaqt davomida amalga oshirilib kelinib, doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar kabi O'zbekistonning ham eng muhim infratuzilma loyihalariga ajratishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslari cheklangan; shuning uchun xususiy sektor kapitalini jalb qilish orqali yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish, biznes muhitini yaxshilash va aholining turmush sifatini oshirish imkoniyati mavjud.

Budjet mablag'lari taqchilligi sharoitida davlat organlari infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish imkonini beruvchi yangi manbalarni izlashga urinadi.

So'nggi yillarda pandemiya va turli tabiiy ofatlarga qarshi kurash sharoitida inson hayoti va sog'lig'i, shuningdek, atrof-muhit xavfsizligi va sifati bilan bevosita bog'liq bo'lgan, tabiiy ofatlarga chidamli va yuqori sifatli infratuzilma obyektlarini yaratish dolzarb vazifa sifatida yuzaga kelmoqda.

Hozirgi jahon amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ham infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda DXSh muhim ahamiyat kasb etmoqda buni quyidagi tahlillar jarayonida ham ko'rishimiz mumkin.

2023-yilda infratuzilma loyihalariga jalb etilgan xususiy sektor investitsiyalari 86,0 mlrd. dollarni tashkil etdi. Garchi bu ko'rsatkich 2022-yildagi 91,3 mlrd. dollardan biroz kamaygan bo'lsa-da, 2023-yilda loyihalar soni sezilarli darajada oshib, 2022-yildagi 260 tadan 322 taga yetdi [4].

2023-yilda DXSh investitsiyalari 86,0 mlrd. dollarni tashkil etdi, bu esa barcha past va o'rta daromadli mamlakatlar YaIMning 0,2 foizi (38,8 trln. dollar)ni tashkil qildi. Garchi bu 2022-yildagi 91,3 mlrd. dollardan

biroz pasaygan bo'lsa-da, 2023-yilda jami majburiyatlar avvalgi besh yillik (2018-2022-yillar) 85,5 mlrd. dollardan biroz oshdi.

1-jadval

Mintaqalar bo'yicha infratuzilma loyihalarida DXSh ishtirokining YaIMdagi ulushi (2023-yil)*

Mintaqa	Infratuzilmada davlat-xususiy sheriklik (mln. dollar)	Loyihalar soni	DXSh/YaIM (foizda)
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	51445,17	73	0,24
Yevropa va Markaziy Osiyo	4139,49	35	0,10
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	15809,68	102	0,30
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	2,888,39	14	0,17
Janubiy Osiyo	8258,91	32	0,19
Afrika	3465,26	66	0,17

*Jahon bankining 2023-yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2023-yilda Lotin Amerikasi va Karib dengizi mintaqasida infratuzilmaga DXSh investitsiyalarining mintaqaviy YaIMga nisbati 0,3 foizni tashkil qilib, eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. Biroq, 2022-yilgi 24,3 mlrd. dollardan 42 foizga pasayib, 15,8 mlrd. dollarga tushdi. Shu bilan birga, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida investitsiya majburiyatlari

51,4 mlrd. dollarni tashkil qilib, 2022-yildagi 43,4 mlrd. dollarga nisbatan oshdi. Janubiy Osiyoda DXSh investitsiyalari YaIMning 0,19 foizini, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada esa 0,17 foiz, Yevropa va Markaziy Osiyoda DXSh investitsiyalarining YaIMga nisbati eng past bo'lib, 0,10 foizni tashkil etdi.

2-jadval

Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mamlakatlarida DXSh doirasidagi investitsion majburiyatlar va infratuzilma loyihalari soni (2023-yil)*

Mamlakatlar	Investitsiyalar hajmi (mln. dollar)	Loyihalar soni
Xitoy	40383	37
FiliDXShn	7574	17
Indoneziya	1762	8
Kambodja	450	2
Malayziya	131	3
Vetnam	95	2
Tailand	90	2
Papua-Yangi Gvineya	1	1
Jami	51445	73

*Jahon bankining 2023 yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2023-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida 35 ta loyiha bo'yicha 4,1 mlrd. dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, bu 2022-yildagi 4,0 mlrd. dollardan to'rt foizga

ko'pdir. Biroq, ushbu ko'rsatkich o'tgan besh yillik o'rtacha ko'rsatkichdan 48 foizga kamaygan. 2023-yilda amalga oshirilgan loyihalar soni 2022-yildagi 15 tadan 35 taga yetdi.

3-jadval

Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida DXSh doirasidagi investitsion majburiyatlar va infratuzilma loyihalari soni (2023-yil)*

Mamlakatlar	Investitsiyalar hajmi (mln. dollar)	Loyihalar soni
O'zbekiston	1612	6
Bolgariya	532	13
Bosniya va Gertsegovina	495	2
Turkiya	434	4
Ozarbayjon	348	1
Qozog'iston	219	4
Albaniya	187	2
Serbiya	169	1
Qirg'iziston Respublikasi	118	1
Armaniston	26	1
Umumiy	4139	35

*Jahon bankining 2023-yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2023-yilda O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida oltita loyiha orqali 1,6 mlrd. dollar sarmoya kiritdi, eng yirik loyihasi Andijon quyosh PV zavodi bo'lib, qiymati 400 mln. dollarni tashkil etdi. Bolgariya esa 13 ta loyiha orqali 532 mln. dollar sarmoya jalb etib, ushbu loyihalarning 8 tasi maishiy chiqindilar sektoridagi loyihalarga yo'naltirildi. Umuman olganda, investitsiyalar hajmi 2023-yilda 2022-yildagi 91,3 mlrd. dollardan 5 foizga kamayib, 86,0 mlrd. dollarni tashkil etdi. DXSh asosida loyihalarni moliyalashtirish esa 2022-yilga nisbatan 1 foizga oshib, loyihalar soni 54 tadan 68 taga yetdi va 85,5 mlrd. dollarni tashkil qildi.

2023-yilda O'zbekiston va boshqa mintaqalarda infratuzilma loyihalariga xususiy sektor investitsiyalari va DXSh orqali mablag' jalb qilish oshdi, bu esa davlat budjeti cheklangan sharoitida loyihalarni samarali amalga oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkonini berdi. DXSh mexanizmi davlat uchun tavakkalchilikni kamaytirib, xususiy sektor tajribasi va yangi texnologiyalarini loyihalarga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, MDH va Yevropa davlatlarida so'nggi o'n yil mobaynida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirishda keng qo'llanilmoqda. Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya hamda bir qator Yevropa mamlakatlarida DXShning turli modellari energiya, transport va ijtimoiy infratuzilma sohalarida muvaffaqiyatli tajriba to'plagan. Shu asosda, DXSh mexanizmlarini rivojlantirishga yordam berish maqsadida Rossiya va Qozog'istonda maxsus markazlar tashkil etilib, loyiha tayyorlash, maslahat berish va o'quv kurslarini amalga oshirish orqali investitsion faoliyat samaradorligi oshirilmoqda. Ushbu xalqaro tajribalar O'zbekiston sharoitida ham DXSh mexanizmlarining rolini kuchaytirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish va davlat-xususiy sheriklikni tizimli ravishda rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurligini ilmiy asoslaydi.

2. Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования / Э. Р. Йескомб ; Пер. с англ. — М. : Альпина Паблишер, 2015. — 457 с. С. 24.
3. Gerrard M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations?//Finance & Development. 2001. Vol.38. № 3.P.107.
4. Private Participation in Infrastructure (PPI) 2023 annual report p-4.
5. Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования / Э. Р. Йескомб ; Пер. с англ. — М. : Альпина Паблишер, 2015. — 457 с. С. 24.
6. Gerrard M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations?//Finance & Development. 2001. Vol.38. № 3. P. 107.
7. Агазарян Н.В. Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства // Государственно-частное партнерство. — 2016. — Т. 3. — № 2. — С. 151-172. — doi: 10.18334/ppp.3.2.37071.
8. Юсупов Н.А., Карабаев Ф.Э., Обломуродов Н.Н. "Теория и практика государственно-частного партнерства" учебный модуль. Ташкент-2013. С. 6.